




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 3-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

MHD mamlakatlarida rus tilini chet tili sifatida o'qitishning lingvistik-uslubiy jihatlari**Ahmadjonova Marjona Azamatjon qizi**

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

1-bosqich 25_09-guruh talabasi

Annotatsiya. "Til bilgan – el bilar" degan gap bejiz emas. Haqiqatdan, boshqa tillarni bilgan inson turli davlatlarda qiyinchilik ko'rmaydi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida rus tili va ingliz tili rivojlanmoqda va butunjahon tiliga aylanmoqda. Ushbu maqolada MDH mamlakatlarida rus tilini chet tili sifatida o'qitishning lingvistik-uslubiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Avvalo, MDH haqida va ularning ona tili haqida mulohaza yuritamiz, rus tilining MDH hududidagi o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqamiz, bu masala qanchalik dolzarb, uning qanday foydalari bor kelajak yoshlari uchun kabi savollarga javob beramiz. Rus tilining chet tili sifatida o'qitilishining ijobiy va salbiy tomonlari ochib beriladi, uning lingvistik jihatlari nimadan iborat, uslubiy jihatlari-chi? Darslik va qo'llanmalarining xususiyatlari tahlil qilinadi. Ona tilidan rus tiliga yoki boshqa tilga o'tishda bola yoki har qanday o'rganuvchi qiyinchilikka uchrashi tabiiy va ularni maxsus metodlar orqali oson singdirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va shunga o'xshash muammolar chuqur va atroflicha izohlanadi.

Kalit so'zlar: MDH, rus tili, lingvistik, uslubiy, darslik, metodika, globallashuv.

MDH haqida qisqacha ma'lumot

MDH — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlararo tashkilotdir. Bu tashkilot 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Mana shu uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. Va oz vaqtdan so'ng, ya'ni 1991-yil 21-dekabrda bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi. Sekin-asta boshqa davlatlar ham bu bitimga qo'shila boshladi. E'tibor berishimiz kerak, bu tashkilotning ish yuritish tili rus tilidir. Rossiya uzoq muddatlik maqsadiga erishdi. Endilikda rus tili MDH davlatlari o'rtasida millatlararo til sifatida tan olindi va rus tilining mavqeyi ko'tarildi. Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko rus tilini alqab chiqdi va rus tili bo'yicha xalqaro tashkilot tashkil etilishini qo'llab-quvvatlagan. Qozog'iston prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev ham shu taklifni bergan. Demak, rus tilining MDH tashkilotida o'rni beqiyos va MDH davlatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, MDH davlatlari rus tilini hurmat qilishadi. Bu mavzu dolzarb, chunki MDH hududida rus tilini chet tili sifatida o'qitish faqat til masalasi emas, balki siyosat, iqtisodiy, madaniy va ilmiy hamkorlik uchun ham zarur. Rus tili

umumaloqa vositasi bo'lib, u chet tili sifatida o'rgatilganda xalqlararo muloqotni osonlashtiradi. Shunga o'xshash ba'zi bir xususiyatlarining borligini hisobga olsak, qanchalik dolzarbligini ko'ramiz va anglaymiz.

Asosiy qism

Barchamiz maktabda o'qiganmiz va darsliklardan xabardormiz. Rus tili ham darslik sifatida o'tilgan va biz ozmuncha bo'lsa ham ma'lumotga egamiz. Tovush tizimini, uning xususiyatlarini o'rgandik. Masalan, rus tilida 33 ta harf bor: 10 ta unli, 21 ta undosh va 2 ta belgi. Urg'u so'z ma'nosini o'zgartira oladi. Ba'zi bir tovushlar MDH dagi xalqlarning ona tilida yo'q.

Leksik xususiyatlari: rus tili lug'at boyligi keng — 150 mingdan ortiq so'z mavjud. Lug'atda xalqaro so'zlar ko'p, ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega. Shuningdek, MDH tillaridan kirib kelgan o'zlashma so'zlarni ham uchratishimiz mumkin.

Endi MDH mamlakatlari tillari bilan rus tilini solishtirib ko'ramiz. MDH dagi tillar asosan ikkita katta guruh:

1. Slavyan tillari: belarus, ukrain, rus.
2. Turkiy tillar: o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon. Shuningdek, fors-tojik tili ham mavjud.

O'xshash jihatlar:

Ularning so'z boyligi, fe'l zamonlari o'xshash. Masalan, o'zbek, tojik va rus tillarida zamon tushunchasi mavjud.

Farqli jihatlar:

Rus tilida “ы”, “ь”, “щ”, “ё” kabi tovushlar boshqa tillarda uchramaydi.

Rus tilida jins kategoriyasi bor, turkiy tillarda esa yo'q.

Rus tilida oltita holat mavjud, turkiy tillarda esa bu ko'plik va kelishik qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

Rus tilida aspekt (harakat turi) tizimi mavjud, turkiy tillarda esa yo'q.

Har qanday boshqa xalq vakili ona tilidan rus tiliga o'tishda tipik xatolarga yo'l qo'yadi. Masalan:

O'zbek tilida “ы”, “щ” tovushlarini to'g'ri talaffuz qilolmaslik kuzatiladi.

So'zma-so'z tarjima qilganda to'g'ri ma'no chiqmay qolishi mumkin.

Misol: “смотреть” (qaramoq) bilan “видеть” (ko'rmoq) farqlanadi, o'quvchilar esa chalkashtirib yuboradi.

Jins kategoriyasini hisobga olmaslik holatlari uchraydi. Misol: “мой книга” deyish, to'g'risi “моя книга”.

So'z tartibini ona tiliga moslab yuborish mumkin. Misol: “Я книгу читаю” o'rniga “Я читаю книгу” deyish to'g'ri bo'ladi.

Bunday lingvistik qiyinchiliklarni yengish uchun ba'zi mashqlar bajarish kerak:

Qiyin tovushlarni ko'p takrorlash,

Rus tilidagi so'zlashuvlarni tinglash va o'quvchilarni takrorlashga o'rgatish,

Holatlarni o'rganish uchun maxsus jadvallardan foydalanish,



Rol o'yinlari va suhbatlar orqali grammatikani amaliy qo'llash.

Faqat qoida yodlash bilan chegaralanib qolmaslik kerak, uni so'zlash kerak, gapirish kerak, amalda sinash zarur. Qiyoslash ham eng yaxshi usullardan biridir. Ya'ni rus tili va o'z ona tilini qiyoslash osonroq tushunishga yordam beradi. Misol: rus tilida "я иду в школу", o'zbekchada "men maktabga ketayapman".

Uslubiy jihatlar:

Rus tilini o'rgatishda birinchi o'rinda darsliklarga katta e'tibor berilishi kerak. Darsliklar har tomonlama mukammal bo'lishi lozim.

Rus tili fonetikasi, grammatikasi va leksikasi tizimi to'liq qamrab olinishi zarur.

Darsliklarda kundalik suhbatlar, dialoglar o'rin olishi kerak.

Asosiysi, darsliklar darajalab taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan darsliklar bolani qiziqtiradi.

O'qituvchining malakasi va uslubiy tayyorgarligi ham yaxshi samara beradi.

Ammo ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

Agar o'quvchilar rus tilini o'rganishning amaliy ahamiyatini ko'rmasa, qiziqishi susayadi.

Ba'zi o'quvchilarda uch tilda (ona tili, davlat tili va rus tili) o'qish chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Misol: o'quvchi bir so'zning tarjimasini uch xil tilda aralashtirib yuborishi mumkin.

Bu muammolarni hal qilish uchun:

O'quvchiga rus tilining kelajakdagi foydasini ko'rsatish kerak. Misol: rus tilini bilgan o'quvchi xorijiy grantlarda qatnashishi mumkin.

O'yin texnologiyalari va musobaqalar orqali qiziqish oshiriladi.

Uch tilda o'qishni raqobat emas, balki boylik sifatida tushuntirish kerak.

Xulosa

Rus tilini chet tili sifatida o'qitishni har tomonlama ko'rib chiqdik. Demak, ko'rinib turibdiki, MDH davlatlarining barchasi deyarli rus tilidan hamma sohada foydalanadi. Misol: xalqaro aloqa, ta'lim, fan, madaniyat, iqtisodiyot va siyosat. Rus tili integratsiya uchun muhim ahamiyatga ega. Uni bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatlararo hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Yuqorida qalamga olingan lingvistik va uslubiy jihatlarini uyg'unlashtirsak, rus tilini o'rganish osonlashadi. Nazariya + amaliyot uyg'unligi samaradorlikni oshiradi. Bu ikkalasi birlashganda rus tilini o'rganish tez va samarali bo'ladi.

Har qanday ijobiy salmoqli ishning albatta salbiy oqibatlari ham bo'ladi. Rus tilining kirib kelishida xalqning o'z ona tiliga ta'siri haqida so'z yuritsak:

Birinchi o'rinda o'z ona tilining ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin.

So'zlashish va yozish ko'nikmalari pasayishi ehtimoli bor. Misol: yoshlar ruscha so'zlarni ko'proq ishlatib, o'zbekchalarini unutadi.

O'z madaniyatidan uzoqlashish va urf-odatlarini unutish holatlari kuzatiladi. Misol: milliy bayramlarda ruscha odatlarni qo'llash.

Yoshlar o'z ona tilini bilmasa, milliy o'zlikni anglash jarayonida bo'shliq paydo bo'ladi.

Chora-tadbirlar:

Davlat tiliga ustuvorlik berish. Misol: rasmiy hujjatlarni faqat davlat tilida yuritish.

Ikki tilli metodikani qo'llash.

Milliy darsliklar sifatini oshirish.

Ikki tilda kontent qilish, ya'ni rus tilidagi kontentni tarjima qilib, o'zbek tilida ham tarqatish.

Kelgusida rus tilini MDH mamlakatlarida o'qitish, albatta, o'z ona tilini rivojlantirishi bilan birga, raqamli texnologiyalar, qo'shma metodlar va madaniyatlararo yondashuvlar asosida yanada samarali bo'ladi. Bu jarayon o'quvchining nafaqat til bilimini, balki kasbiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ашуров, А. (2020). Методика преподавания русского языка как иностранного. Тошкент: Университет нашриёти.
2. Нормуродов, Д. (2019). Рус тили фонетикаси ва уни ўргатиш услуги. Тошкент: Фан ва технология.
3. Гальскова, Н. Д., & Гез, Н. И. (2006). Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. Москва: Академия.
4. Верещагин, Е. М., & Костомаров, В. Г. (1990). Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Москва: Русский язык.
5. Назаров, Қ. (2021). Рус тилининг лексик ва грамматик хусусиятлари. Самарқанд: СамДУ нашриёти.
6. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi rasmiy sayti. (2023). <https://cis.minsk.by>
7. To'xtaboyeva, M. (2022). Rus tili darsliklari va ularning metodik tahlili. Toshkent: Noshir.
8. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press. (rus va ingliz tillarining globallashtirishdagi o'rnini uchun qo'llanildi).

